

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NORBERDIYEVA MUYASSAR SHARIPOVNA**

**LOYIHALASHTIRISH ASOSIDA “KISLORODLI ORGANIK  
BIRIKMALAR” BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 -Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Norberdiyeva Muyassar Sharipovna**

Loyihalashtirish asosida “Kislorodli organik birikmalar” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish..... 3

**Норбердиева Муяссар Шариповна**

Совершенствование методики преподавания раздела “Кислородные органические соединения” на основе проектирования..... 21

**Norberdiyeva Muyassar Sharipovna**

Improving the teaching methodology of the department “Oxygenated organic compounds” on the basis of design..... 31

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 35

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NORBERDIYEVA MUYASSAR SHARIPOVNA**

**LOYIHALASHTIRISH ASOSIDA “KISLORODLI ORGANIK  
BIRIKMALAR” BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 -Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2023.2.PhD/Ped5110 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Karlibayeva Guljaxan Yermekbayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Ahadov Ma'mur Sharipovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G. Isyanov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash Ilmiy kotibi, p.f.n., dosent

**M.E.Mamarajabov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim muassasalarida ro'y berayotgan zamonaviy o'zgarishlar asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, loyhalashtirish asosida talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari tatbiq etilmoqda. 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilanadi. Ushbu ta'lim tizimida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirish, kimyo fanining kompetentlik darajasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, kimyoviy bilimlarni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish, rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar kimyo darslarida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, talabalarda metodik bilimlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim olishga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan sharoitlar yosh avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon beradi. Ta'lim mazmuni, shakli, metodlari va vositalarida ham o'zgarishlar amalga oshib bormoqda. Mehnat sharoitlari, mutaxassislarga bo'lgan talablarning o'zgarishi bilan bog'liq holda, bo'lajak mutaxassislarni tayyorgarlashda ularning ijodkorlik, raqobatbardoshlik xususiyatlari birinchi o'ringa chiqdi, natijada, ta'lim sohasida o'qitishning innovatsion metodlaridan kengroq foydalanish talab etiladi. Zamonaviy ta'limning muhim vazifasi nafaqat tizimli bilimlarni, o'quv ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki kommunikativ va o'qib-o'rganish faoliyatida o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini ham rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2020-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini oshirish va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4805-son Qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan ta'lim jarayonini takomillashtirishga doir vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda kimyo fani darslarida ta’lim oluvchilarning ijodiy bilish faoliyatini shakllantirish hamda ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha H.T.Omonov, Sh.Sh.Begmatov, N.G.Rahmatullayev, Sh.M.Mirkomilov, M.Nishanov, S.A.Nizamova, Sh.K.Mamajanov, A.Xaitov, E.Eshchanov, B.Do‘manov, M.B.Ajiyeva, F.A.Alimova, L.T.Zaylobov, R.Berdiqulov, I.Shernazarov, D.Sarimova, S.Movlonova, Sh.Shomurotova, Sh.Saydaxmetova, Sh.Formanova kabi tadqiqotchilar faoliyat olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida mazkur texnologiyani ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha V.N.Davidov, Yu.V.Jeleznyakova, A.I.Ageyeva, P.F.Alekseyeva, R.M.Antropova, O.M.Astaxova, A.V.Belov, V.N.Belousov, A.L.Bloxin, A.V.Bichkov, P.I.Bespalov, I.V.Vaxrusheva, L.N.Vlasova, E.Vamedor, E.S.Gaydamak, L.V.Golikova, A.V.Dombrovskiy, M.I.Yevdokimova, N.N.Zalesova, I.Ya.Zlotnikova, G.A.Zabelina, N.V.Ivanova, T.G.Ivoshina, A.A.Karachev, T.A.Karpova, E.S.Kondratenko, D.A.Kostikova, A.Yu.Kravsova, N.A.Kralya, D.N.Kojnikov, O.Yu.Latishev, L.I.Lebedeva, O.Ye.Lomakina, I.Yu.Malkova, O.F.Smolyakova, Ye.S.Markova, T.G.Melnik, Ye.O.Okuneva, T.P.Tretyakova, S.S.Racheva, T.P.Reznik, Ye.Yu.Rogacheva, A.I.Savenkov, A.I.Sergeyev, I.Yu.Solovyeva, V.N.Strenberg, A.A.Filimonov, Z.L.Shintal, S.N.Yakovleva kabi tadqiqotchilar faoliyat yuritishgan. Oliy ta’lim tizimida V.G.Veselova, M.U.Gappoyeva loyiha metodidan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-uslubiy faoliyat yuritishgan.

Xorijlik olimlardan R.Allright, L.Bachman, M.Breen, C.Candlin, C.Brumfit, M.Canale, N.Chomskiy, M.Holliday, D.Hymes, H.Johnson, W.Littlewood, K.Morrow, J.Munby, R.Oxford, B.Patten, N.Prabhu, J.Richards, S.Savignon, M.Swan, J.Van Ek, H.Widdowson, D.Wilkins, A.Wright, J.Yalden va boshqalar ta’lim sohasida loyiha metodidan samarali foydalanish, loyihalash asosida kommunikativ (jamoat, birlashgan) yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishga oid tadqiqotlar olib borgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** loyihalashtirish asosida “Kislorodli organik birikmalar” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

loyiha metodining talabalar ijodiy faoliyatiga rivojlantiruvchi vosita sifatida ta'sir etish metodikasini takomillashtirish; loyihalashtirish asosida o'qitish metodikasini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish; "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini loyihalashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish va modelini ishlab chiqish; "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini loyihalashtirish asosida o'qitish metodikasi samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining 307 nafar talabasi jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod, vosita va imkoniyatlari tashkil qiladi

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mobaynida, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holatda, tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; ma'lumotlarni qidirish uchun kimyo darsliklarini va maxsus ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; loyihalashtirish, o'quv mashg'ulotlari tarkibini modellashtirish; so'rovnomalar, talabalarni maqsadli kuzatish, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar maqsadlarini reglamentli optimallashtirish, talabalarning real hayotiy vaziyatlarga oid amaliy tajribasini boyitish ehtiyojlari va izlanuvchanlik faoliyati aloqadorligini dinamik oshirish hamda fanga oid yangi bilimlarni o'rganish motivatsiyalarini rivojlantirishga izchil ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni amaliy-tadqiqotli, ijodiy-axborotli rivojlanish yo'nalishlarda kognitiv fikrlash va refleksiv yondashuvlarga barqaror ustuvorlik berish hamda motivatsion-intellektual, amaliy-faoliyatli pedagogik vaziyatlarni ta'lim maqsadlariga kasbiy transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli gipoteza va farazlar berish, axborotni sintezlash, texnologik stereotiplashtirish, g'oyani realizatsiyalashtirish, ijodiy obyektni korreksiyalash bosqichlarini o'z ichiga olgan ko'rgazmalilik, erkin boshqarish, moslashuvchanlik ijodiy-pedagogik muhitni yaratish hamda konstruktorlik dasturlarini ishlab chiqish sohasiga kasbiy transformatsiyalashning tarkibiy-tuzilmaviy va funksional talablarini frontal uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligi motivatsion-qadriyatli va ijodiy-

rag'batlantiruvchi ishchan-pedagogik jarayonni tashkil etishning nazariy hamda amaliy birligini didaktik tamoyillarga adaptiv sinxronlashtirish hamda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga maqbul sharoit yaratish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat: kimyo fanini o'qitish mobaynida loyiha metodidan foydalanishga doir uslubiy qo'llanma yaratilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan; loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan; loyiha usuli qo'llangan o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi tayyorlangan, "Kislorodli organik birikmalar" bo'limiga tegishli kimyoviy tajribalar uchun loyiha metodiga muvofiq ishlanmalar tayyorlangan; organik kimyo fanini o'qitish jarayoniga loyiha metodini qo'llash orqali nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashda talabalarning faolligini, ijodkorligini, tanqidiy fikrlashini, mustaqil qarorlar qabul qilish xususiyatlarini oshirish orqali ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslanilgani; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llangani; tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim tizimida organik kimyo fanini o'qitishda loyiha metodidan foydalanishga qaratilgan muammolarning ilmiy asoslangani, tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalardan kimyo o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan uslubiy tavsiyalar bu borada mavjud muammolarning hal etilishi, talabalarning o'zlashtirishi, innovatsion qobiliyatlari, qiziqishlariga ijobiy ta'sir o'tkazishida o'z aksini topadi, taklif etilgan usul va yo'riqnomalar talabalarda ijodkorlik, tizimli, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, umumlashtirish, xulosalash, hayotiy muammolarga maqbul yechimlarni topish xususiyatlarini rivojlantiradi. Yaratilgan tavsiyalar kimyo fanini o'qitishda kimyo fani o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Loyihalashtirish asosida "Organik kimyo" fanining "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlarini dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar maqsadlarini reglamentli optimallashtirish, talabalarning real hayotiy vaziyatlarga oid amaliy tajribasini boyitish ehtiyojlari va izlanuvchanlik faoliyati aloqadorligini dinamik oshirish hamda fanga oid yangi bilimlarni o'rganish motivatsiyalarini rivojlantirishga izchil ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Kimyo o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga



asosan berilgan 233-0158 nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga sharoit yaratilgan;

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayonini amaliy-tadqiqotli, ijodiy-axborotli rivojlanish yo'nalishlarda kognitiv fikrlash va refleksiv yondashuvlarga barqaror ustuvorlik berish hamda motivatsion-intellektual, amaliy-faoliyatli pedagogik vaziyatlarni ta'lim maqsadlariga kasbiy transformatsiyalash asosida takomillashtirishga doir takliflar "Kimyo o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan berilgan 233-0158 nashr guvohnomasi). Natijada, fanni o'qitish metodikasini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish modelini gipoteza va farazlar berish, axborotni sintezlash, texnologik stereotiplashtirish, g'oyani realizatsiyalashtirish, ijodiy obyektni korreksiyalash bosqichlarini o'z ichiga olgan ko'rgazmalilik, erkin boshqarish, moslashuvchanlik ijodiy-pedagogik muhitini yaratish hamda konsruktorlik dasturlarini ishlab chiqish sohasiga kasbiy transformatsiyalashning tarkibiy-tuzilmaviy va funksional talablarini frontal uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Kimyo o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan berilgan 233-0158 nashr guvohnomasi). Natijada, talabalarning loyihalashtirish jarayoni bilan bog'liq ko'nikmalari shakllanishiga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga erishilgan;

loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish samaradorligini motivatsion-qadriyatli va ijodiy-rag'batlantiruvchi ishchan-pedagogik jarayonni tashkil etishning nazariy hamda amaliy birligini didaktik tamoyillarga adaptiv sinxronlashtirish hamda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishga maqbul sharoit yaratish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Kimyo o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'iga asosan berilgan 233-0158 nashr guvohnomasi). Natijada, kimyo ta'limini ilmiy va amaliy integratsiyasida tashkil etish samaradorligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ta ilmiy ish, OAK tomonidan e'tirof etilgan jurnallarda 10 ta maqola, shundan 2 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilingan ishlari va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kislorodli organik birikmalar bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirishda loyihalashtirishning nazariy va amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida loyiha metodining kelib chiqishi va mazmun-mohiyati, zamonaviy ta'limda loyiha metodining o'rni, uning vazifalari va bosqichlari, loyihalashtirishning talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ilmiy-pedagogik va nazariy tahlil qilingan.

Loyiha metodi pedagogik amaliyotda prinsipial jihatdan yangi emas, lekin ayni paytda u tez o'zgaruvchan dunyoga mos kelish xususiyatiga ega bo'lgani sababli XXI asr pedagogik texnologiyasi deb ataladi.

Ta'lim loyihalarini tuzish, qayta tayyorlashda talabalar yoki o'quvchilar ishtirok etgani uchun ijodiy jarayonning o'zi ham diqqat markazida turadi. Loyihalashtirish – umumiy maqsadga mos faoliyat metodlariga ega bo'lgan ishtirokchilarning birgalikdagi o'qib-o'rganish, ijodiy yoki o'yin jarayoni bilan birga olib boriladigan faoliyati. O'quv loyihasi ishtirokchilarning o'z imkoniyatlarini ishga solib, mustaqil ravishda qiziqarli nimadir qilish, o'zini namoyish etish, o'z kuchiga baho berish, o'z bilimlarini sinab ko'rish, ko'pchilikka natijalarini ko'rsatish va ularga foyda keltirish imkoniyatini beradi. O'quv loyihalari ma'lum bir vaziyatdagi muammoga tegishli masalani hal etishni mashq qilish orqali muammolarni hal qilishga o'rgatuvchi maqsadli didaktik vositadir.

Ta'lim loyihasini tayyorlash mazmuniga ko'ra besh bosqichga bo'linadi: boshlangich bosqich (tashkiliy), asosiy bosqich, ma'lumotlar bilan ishlash bosqichi, umumlashtiruvchi bosqich, yakunlovchi bosqich.

Loyihalashtirish metodi qo'llanar ekan, albatta, uning tamoyillari, me'yorlari, qoidalariga amal qilish talab etiladi. Loyihalashtirish shunchaki bir faoliyat turi bo'lib qolmay, ma'lum ketma-ketlikda, almashuvchi yangi holatlari, topshiriqlar, faoliyat turlari, axborotlar bilan tavsiflanadigan jarayondir.

Loyihaning ichki tuzilishi muammoning dolzarbligi, tadqiqot predmeti, loyiha maqsadi, gipotezalar, vazifasi, qo'llangan metodlar, natijaning amaliy ahamiyati kabi an'anaviy komponentlardan iborat.

Har qanday o'quv loyihasi quyidagi didaktik tavsiflarga ega bo'lishi kerak: ishtirokchilarning faol ehtiyojlari va hayotiy faoliyati bilan uzviy bog'liqlik, hal qilish uchun bilimlar integratsiyasi, tadqiqotlar olib borishni talab etadigan ahamiyatga ega muammolarning mavjudligi; loyihaning amaliy, nazariy, bilim olish yo'nalganligi; ishtirokchilarning mustaqil (individual, juftlikda, guruhda, jamoada) faoliyat olib borishi, faoliyatning intellektual, ijodiy, axborot beruvchi tavsifga ega bo'lishi; loyihaning tarkibiy qismini konstruksiyalash, loyiha ishining boshlanish va yakuniy

(har bir bosqichi) muddatlarini aniqlash; ishtirokchilar aniq tadqiqot yo‘nalishidagi maqsadli faoliyat olib borishi.

Loyihalashtirish talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi vosita, ijodkorlik – bu yangi moddiy va ma‘naviy boylik yaratish faoliyatidir. Quyidagi jadvalda o‘quv loyihasining ichki tuzilishi aks ettirilgan.

Psixologlarning fikricha, ijod odamning yangi muammolarni mustaqil hal etishida namoyon bo‘ladi. Ishtirokchilarning ijodiy faoliyati mahsuloti nafaqat obyektiv, balki subyektiv yangilik bo‘lishi ham mumkin. Agar ijod mahsuli ilgari hech kimga ma‘lum bo‘lmasa, obyektiv yangilik, mahsulot ilgari boshqalarga ma‘lum, lekin ishtirokchilarga noma‘lum bo‘lsa, subyektiv yangilik hisoblanadi.

Ishtirokchilar ijodiy jarayoni asta-sekin, oddiydan murakkab loyihalarga qarab chuqurlashib boradi. Faoliyat turlari, mavzular almashuvi, amaliy materialdan nazariy material tayyorlash, bir muammo yechimiga boshqacha yondashuv bilan yana qaytish, o‘tilgan mavzularni davriy takrorlash, mavzularni har xil shaklda, kombinatsiyada takrorlash imkoniyatlari yaratiladi.

Ijodiy faoliyat jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: tayyorgarlik, fikr yuritish, izlanish, amalga oshirish. Tayyorgarlik bosqichi qolgan bosqichlarga tegishli jarayon rejalari shakllantiriladi, tegishli dastlabki manbalar to‘planadi, fan va texnikaga oid faktlar boshlang‘ich tizimiga keltiriladi, intellektual-ijodiy jarayonga tayyorgarlik ko‘riladi.

Ijodiy jarayonning yuqorida berilgan bosqichlari, ayniqsa izlanish bosqichida deyarli barcha mavjud metodlardan foydalaniladi.

Loyihalashtirish faoliyati integrativ faoliyat turiga kirib, o‘yin, bilim olish, maqsadni belgilash, qayta o‘zgartirish, kasbiy mehnat, kommunikativ, o‘quv, nazariy va amaliy faoliyat elementlarini o‘zida sintez qiladi. O‘yinli faoliyat – real holatni o‘rgangan holda, shartli obrazlarga kirish asosida turli rollarni ijro etish. Bilim olish faoliyati ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etiladigan, fan asoslari va atrof muhitni o‘rganish. Maqsadni belgilash faoliyati – ta‘lim maqsadi, qiziqishlar, loyiha predmetini anglash.

Loyiha metodining mazmun va mohiyatini chuqur anglash, metodning qo‘llanish tarixida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni idrok etish undan amaliyotda foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uning vazifalari, turlari, bosqichlari haqida mukammal bilimlarga ega bo‘lish talabalarning ijodiy faoliyati, mustaqil ishlarini tizimlashtirishga va yo‘naltirishga yordam beradi. Loyiha metodidan samarali foydalanish natijasida mavzuga tegishli turli manbalarga doir axborotlar tahlil qilinadi, mavhum va nomutanosib ma‘lumotlar tadqiq etilib, ta‘limning sifati va rivojlantiruvchi xususiyatini oshirishga olib keladi. Loyiha ishlarini bajarish ta‘lim oluvchilarda subyektiv yangiliklar qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu kelajakda obyektiv kashfiyotlar uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Kimyo fanini o‘qitishda loyiha metodidan foydalanish borasida zamon talablariga javob beruvchi, fan xususiyatlari va imkoniyatlarini qamrab oluvchi uslubiy tavsiya, yo‘riqnomalar tayyorlashga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqot ishining **“Loyihalashtirish asosida “Kislorodli organik birikmalar” bo‘limini o‘qitish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida **“Kislorodli organik birikmalar” bo‘limiga doir loyiha turini tanlash omillari,**

bo'limga doir eksperimentlarga (tajribalarga) loyiha metodi asosida yondashuv, talabalarning loyihalashtirish faoliyatini baholash mezonlari borasidagi mulohazalar hamda uslubiy tavsiyalar keltirilgan, loyiha metodi mustaqil ishlarni tashkil etish shakli sifatida yoritilgan.

Ta'limning ustivorligi va sifati ko'p jihatdan har qanday mamlakatning iqtisodiy maqomini belgilab beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarali natija berishi uchun, o'z-o'zidan ta'lim sohasini ham isloh etish talab etiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda texnologiyalarning juda tez o'zgarishi natijasida odamlar hayoti mobaynida bir necha marta o'z kasbini o'zgartirishiga to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislarga qo'yiladigan talablarga quyidagi bandlar qo'shildi: loyihalashtirish, qaror qabul qilish, ijodiy faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

So'nggi yillarda tadqiqot va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quv va kognitiv faoliyat bilan o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish va o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun turli fanlardan loyiha ta'limidan intensiv foydalanishga intilishlar kuzatilmoqda, bu esa jamiyatda talabalarning ijtimoiy faollashuviga olib keladi.


Kimyo fanining o'ziga xos tuzilmasi va xususiyatlari (ma'lumotlarning tizimlashtirish imkoniyati, eksperimentlarga boyligi, aniq xomashyo va mahsulotlarning mavjudligi, sintezning keng o'rin egallashi, jarayonlarning sharoit va modda miqdori, vaqt bilan aloqadorligi va ularni boshqarish imkoniyatlari, tarix, matematika, informatika, tabiiy fanlararo integratsiyaning kuchliligi) loyiha metodidan samarali foydalanish imkonini beradi. Kimyo ta'limida eksperimental loyiha metodlaridan foydalanish imkoniyatlari ayniqsa yuqori.

Tadqiqotning kislorodli organik birikmalar misolida talqin qilinishiga sabab, organik kimyo kursining ushbu qismini o'rganishda talabalar birinchi marta atomlarning funksional guruhi va uni modda xususiyatlariga ta'siri haqida fikr yuritadi. Gomologiya, izomeriya, moddalarning elektron tuzilishi, funksional guruhlarning o'zaro ta'siri, molekula xossalari uglevodorod radikallari va funksional guruhlarning holatini ta'sir etishi haqida tushunchalar yuritiladi. Bir tomondan, funksional guruh hamda vodorod bog'larning ta'siri kabi yangi tushunchalarni shakllantirish zarurati, ikkinchi tomondan, uglevodorodlarning tuzilishi, xususiyatlari haqidagi mavjud bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beradi. "Kislorodli organik birikmalar" modulga tegishli kimyoviy eksperimentlarning ko'p sonli, muqobil variantlarga ega ekani va turli tumanligi ham loyihalashtirish faoliyati uchun boy "ma'lumotlar bazasi" bo'lib xizmat qiladi.

Loyihalashtirish asosida ma'ruzalar, seminar, eksperimental topshiriqlar, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, bilimlarni muntazam nazorat qilish kabi talim shakllarini tashkil etishda bir qator yangi imkoniyatlar ochiladi.

Loyihalashtirish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishning yuqori darajasiga erishish uchun, avvalo, loyiha obyektini to'g'ri tanlash talab etiladi.

Oliy ta'lim tizimida "Kislorodli organik birikmalar" modulini loyihalashtirish asosida talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan (1-rasm).



**1-rasm. Loyihalashtirish asosida “Kislorodli organik birikmalar” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli.**

Maqsadli komponent sifatida kimyoviy, umumiy, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ustuvorlik berilgan.

Mazmunli komponent sifatida ilmiylik, tizimlilik, muammoli, integrativ, kasbiy yo‘nalganlik kabi umumiy tamoyillar bilan birga loyihalashtirishning ixtiyoriylik, rivojlantiruvchi xarakteri, faoliyatni birlashtirish, boshqarish, zamonaviylik, differensial yondashuv, mahsuldorlik, yakunlanganlik tamoyillariga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Bu tamoyillarga amal qilgan holda loyiha turini tanlash omillari, faoliyatni baholash mezonlari, loyiha metodi asosida eksperiment va mustaqil ishlarga yondashuv aks ettirilgan.

Tashkiliy-boshqaruv komponenti ta‘lim jarayonini tashkil etish tamoyillari, loyihalashtirish jarayonining shakllari va metodlarini qamrab oladi.

Kasbiy-faoliyatli komponent ta‘lim bosqichlariga mos ravishda kimyo o‘qituvchisining faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarning shakllanish monitoringini ifodalaydi.

Natijaviy komponent talabalarining ijodkorlik faoliyatini shakllanish bosqichlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi.

Kimyoviy eksperimentlarni tashkil etishda uzoq yillar mobaynida eksperimentator-metodistlar tomonidan shakllantirilib, qayta ishlanib, to‘ldirib ma‘lum shaklga keltirilgan uslubiy tavsiyalar, yo‘riqnomalarga amal qilinadi. Kimyo ta‘limida bunday tartibli tizimning mavjudligi ko‘plab ta‘limiy-tarbiyaviy imkoniyatlar yaratish bilan birga, bu yo‘nalishda loyiha ishlarini tashkil etishda ham qator qulayliklar tug‘diradi.

Laboratoriya tajribalarida maqsadning qo‘yilishi, vazifalarning belgilab olinishi, kerakli jihoz va reaktivlarni aniqlanishi, ishni bajarish tartibi, xulosa chiqarilishi, kollokvium topshirish tizimi, loyiha ishidagi muammoni belgilab olish, yechimga doir gipotezalarni ilgari surish, eng maqbul gipotezani tanlash, faoliyatni rejalashtirish, xulosa qilish, himoya qilish bosqichlariga o‘xshab ketadi.

Kuzatishlar o‘rsatadiki, kimyoviy eksperimentlarni loyihalashtirishda quyidagi muammolar eng ko‘p uchraydi: jarayonlarga belgilangan muddatning yetishmasligi; eksperimentni tashkil etish uchun kerakli moddiy texnik-bazaning yetishmasligi; faoliyat yurituvchi ishtirokchilarning faolligi bir xil bo‘lmasligi va sust toifali ishtirokchilarning paydo bo‘lishi; loyiha rahbarlarida nazariy ma‘lumotlar bazasining yetishmasligi; loyiha metodini faqatgina ta‘lim samaradorligini oshirish uchungina qo‘llash (talabalar ijodkorligi va mustaqil faoliyatiga e‘tibor bermaslik); loyiha haqida aniq tushunchaning bo‘lmasligi; oldingi subyektiv-obyektiv munosabatlar ta‘sirida bilim olishga motivatsiyaning bo‘lmasligi; kompleks baholash tizimining yo‘qligi; loyiha ishlab chiqish va amalga oshirishdagi xatoliklar.

Kimyoviy eksperimentlarni maqsadiga ko‘ra bir necha turga bo‘lish mumkin: moddaning fizikaviy xossalarini o‘rganish, moddaning kimyoviy xossalarini o‘rganish, moddaning tuzilishini o‘rganish, moddani aniqlash, moddani sintezlash, moddalarni taqqoslash (1-jadval).

**“Kislorodli organik birikmalar” moduli bo‘yicha tavsiya etiladigan  
eksperiment yo‘nalishidagi loyiha mavzulari Bir atomli spirtlarga doir  
eksperimental loyiha mavzulari**

<b>T.r.</b>	<b>Kimyoviy eksperiment turi</b>	<b>Mavzu</b>
1	Moddaning fizikaviy xossalarini o‘rganish	Etil spirtining fizikaviy xossalarini o‘rganish 1. Etil spirtining suv bilan aralashtirilganda sodir bo‘ladigan jarayonlar (harorat, hajm o‘zgarishi). 2. Etil spirit tarkibidagi suvni aniqlash va suvsizlantirish (absalyut spirt olish). 3) Etil spirtning erituvchilik xossalari (bo‘yoq, yodni eritishi).
2	Moddaning kimyoviy xossalarini o‘rganish	Etanolning kimyoviy xossalarini o‘rganish 1. Etanolning yonishi 2. Degidratlanish reaksiyasi 3. Vodorod bromid bilan reaksiyasi 4. yod va fosfor bilan reaksiyasi ( $PI_3$ ) 5. CuO bilan oksidlanishi 6. Havoda oksidlanib sirka kislota hosil qilishi 7. Murakkab efirlar hosil qilishi
3	Moddani tuzilishini o‘rganish	Etil spirtining gidroksil guruhi hisobiga boradigan reaksiyalari. Natriy bilan reaksiyasi
4	Moddani aniqlash	Etil spirtini aniqlash 1. Etil spirtining sifat reaksiyasi ( $I_2 + NaOH$ ta’sirida yodaform sariq cho‘kmasi hosil bo‘lishi). 2. Etil spirtining hidi va zichligi bo‘yicha aniqlash.
5	Moddani sintezlash	Laboratoriyada etil spirtining olinishi 1) Brometandan olinishi 2) Shakarning bijg‘itish yo‘li bilan olinishi
6	Moddalarni taqqoslash	Etil spirit, metil spirit va suvning xossalarini o‘zaro taqqoslash. Zichligi, hidi, Na bilan reaksiyasi, erituvchi xususiyatlari, qaynash harorati

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda loyiha ishlaridan fakultativ mashg‘ulotlarni, to‘garaklarni, elektiv (tanlov) darslarida, mustaqil ishlarni tashkil etishda foydalanish mumkin. Loyiha metodi asosida mustaqil ishlarni tashkil etishda loyiha ishlariga qo‘yiladigan talablar o‘zgarmaydi, faqat bilim olish imkoniyatlari kengayadi, faoliyat uchun ajratiladigan muddat ortadi, ishtirokchilarning yoshi ham kattalashadi. Mustaqil ishlarni bajarishda individual va guruhli, fanlararo, o‘rtacha va uzoq

muddatli, axborot, tadqiqot, ijodiy, amaliy yo‘nalishdagi loyihalardan foydalanish mumkin. Mustaqil ishlarni loyihalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: boshlang‘ich; rejalashtirish; tadqiqot; himoya; refleksiya (tahlil); prezentatsiya.

Loyihani bajarish mobaynida ta‘lim oluvchi va o‘qituvchining roli ham o‘zgarib turadi. Ishtirokchilar faoliyati kuzatilganda, ko‘proq talabalar bilimiga emas, balki jarayonda mavjud bilimlaridan qay darajada foydalanishiga e‘tibor qaratiladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari, pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning matematik-statistik tahlili bayon etilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Jizzax davlat pedagogika universiteti bakalavriatining 60110800 - Kimyo o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi “Organik kimyo” kursini o‘rganish mobaynida olib borildi.

Tajriba-sinov jarayonini o‘tkazish uchun maxsus o‘quv materiallari, oliy ta‘lim tizimida “Kislorodli organik birikmalar” bo‘limini loyihalashtirish asosida o‘qitishga asoslangan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan ta‘lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari faqatgina dars jarayonida emas, balki talabalarning kimyo faniga qiziqishlarini orttirish maqsadida darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham olib borildi. O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarini nazarda tutib, 2019/2020-o‘quv yilida har bir guruh uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlar rejasi tuzildi. Ta‘lim muassasalarida olib borilgan tadqiqot ishimizning birinchi bosqichida “Kislorodli organik birikmalar” bo‘limini loyihalashtirish asosida o‘qitish talabalarning kimyo bo‘yicha bilim, ko‘nikma hamda qiziqishlarini orttirishda qanday samara berishi aniqlandi.

O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinovda ta‘lim muassasalarida 3 ta tajriba, 3 ta nazorat guruhi tanlandi.

Pedagogik tajriba-sinovning birinchi bosqichida tadqiqotda ilgari surilgan g‘oyalar, ya‘ni tayyorlangan tarqatma va didaktik materiallar hamda dars va darsdan tashqari ishlar uchun yaratilgan dars ishlanmalaridan foydalanish, tayyor loyiha namunalarini tahlil qilish orqali talabalarning oldingi bilim hamda ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida olingan nazorat ishlari natijalarini statistik tahlil qilindi (Styudent va  $\chi^2$ -metodlari asosida). Ushbu ma‘lumotlar 2 va 3- rasmlarda aks etgan.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida loyihalashtirish asosida kimyo fanini o‘qitish metodikasini qo‘llab, talabalarning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma hamda malakalari sifatini oshirishi mumkinligi aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov oxirida nazorat va tajriba guruhlari talabalarining nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarida statistik farq borligi, tajriba guruhlarida nisbatan yuqori ekani aniqlandi.




**Tajriba-sinov ishlarining yakunlovchi bosqichidagi natijalarining statistik tahlili (2022-2023 yy.)**


Statistik ko'rsatkichlar	Toshkent davlat pedagogika universiteti		Navoiy davlat pedagogika instituti		Jizzax davlat pedagogika universiteti		Jami	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
	51	51	51	51	51	52	153	154
O'zlashtirishning o'rtacha qiymati	3,8	3,35	3,88	3,39	3,82	3,37	3,84	3,37
Samaradorlik	1,13		1,14		1,14		1,14	
$\chi^2$ (xi-kvadrat)	8,2		10,8		13,8		31,5	
Variatsiya koeffitsiyenti %	20,4	25,2	19,7	24,4	20,1	23,6	20	24,2
Tanlama dispersiya	0,6	0,71	0,59	0,68	0,59	0,63	0,59	0,67
Stand. xato Kvadr. chetlanish	0,78	0,84	0,77	0,83	0,767	0,793	0,76	0,82
Laplas funks. $\phi(t)$	0,4519		0,4535		0,465		0,4572	
Laplas jadv. $t_{kr}$	1,66		1,68		1,81		1,72	
Ishonchli interval	3,63↓	3,15↓	3,74↓	3,23↓	3,67↓	3,21↓	3,76↓	3,28
	3,97	3,55	4,02	3,55	3,97	3,52	3,92	3,46
Sifat darajasini baholash ko'rsatkichi	1,02>1		1,05>1		1,04>1		1,08>1	
Bilish darajasini baholash ko'rsatkichi	0,48>0		0,51>0		0,47>0		0,48>0	
Mezon xulosasi	H <sub>1</sub>		H <sub>1</sub>		H <sub>1</sub>		H <sub>1</sub>	

Ushbu hisoblarning pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi o'rtacha o'zlashtirish qiymati ko'rsatkichlari diagrammasi quyidagicha ko'rinish oldi (2-rasm).

Pedagogik tajriba-sinov asosida tadqiqotning ishonarli ekanini tasdiqlash va ilmiy xulosa qilish uchun yuqoridagi natijalar yetarli bo'ladi ( $T_{kr.} < T_{kuz.}$ ). Bu o'z navbatida tadqiqotlarimizning samaradorligini va tavsiyalarimizning pedagogik nuqtai nazardan ishonchliligini tasdiqlaydi.



**2-rasm. Tajriba-sinov mobaynida tanlama guruhlarining oʻrtacha oʻzlashtirish qiymatlari**



**3-rasm. Tajriba-sinov mobaynida tanlama guruhlarining samaradorlik koʻrsatkichlari**

Ushbu hisob-kitob natijalariga koʻra, olib borilgan tadqiqot ishlari samaradorligi 14% ga yuqori ekani statistik metodlar yordamida isbotlandi va olib borilgan tadqiqot ishi natijalari samarali ekani isbotlandi.

## **XULOSALAR**

1. Loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar maqsadlarini reglametli optimallashtirish, talabalarning real hayotiy vaziyatlarga oid amaliy tajribasini boyitish ehtiyojlari va izlanuvchanlik faoliyati aloqadorligini rivojlantirish hamda adekvat motivatsiyalarini rivojlantirishga ustivorlik berish asosida kengaytirilgan.

2. "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini loyihalashtirish jarayonlari amaliy, tadqiqot, axborot, ijodiy yo'nalishlarda, kognitiv fikrlashga, refleksiv yondashuvlarga ustivorlik berish va motivatsion-intellektual hamda amaliy faoliyatli vaziyatlarni kasbiy transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan.

3. Loyiha metodi asosida rivojlantiriladigan gipotezalar berish, axborot sintezlash, texnologik stereotiplashtirish, g'oyani realizatsiyalashtirish, ijodiy obyektni korreksiyalash bosqichlarini o'z ichiga olgan pedagogik loyihalashtirish modeli ko'rgazmalilik, erkin boshqarish, moslashuvchanlik, axborot texnologiyalari ko'magi mazmunini kasbiy faoliyatga vizual loyihalashtirish hamda konsruktorlik dasturlarini ishlab chiqish sohasiga kasbiy transformatsiyalashning tarkibiy tuzilmasi va funksional talablari uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

4. "Kislorodli organik birikmalar" bo'limi misolida talabalarning loyihalashtirish faoliyatiga oid ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik modeli subyektlarni idrok etishning nazariy hamda amaliy birligini didaktik tamoyillarga adaptiv sinxronlashtirish hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

5. "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini loyihalashtirish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir uslubiy tavsiyalar tizimini pedagogik amaliyotga tatbiq etish va ularning samaradorligini matematik-statistik metodlar yordamida aniqlangan.

6. Loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar maqsadlarini reglamentli optimallashtirish, talabalarning real hayotiy vaziyatlarga oid amaliy tajribasini boyitish ehtiyojlari va izlanuvchanlik faoliyati aloqadorligini dinamik oshirish hamda fanga oid yangi bilimlarni o'rganish motivatsiyalarini rivojlantirishga izchil ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

7. Loyihalashtirish asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni amaliy-tadqiqotli, ijodiy-axborotli rivojlanish yo'nalishlarda kognitiv fikrlash va refleksiv yondashuvlarga barqaror ustuvorlik berish hamda motivatsion-intellektual, amaliy-faoliyatli pedagogik vaziyatlarni ta'lim maqsadlariga kasbiy transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan.

## **TAVSIYALAR**

1. Oliy ta'lim tizimida kislorodli organik birikmalar bo'limini o'qitishda ishlab chiqilgan ilmiy-metodik manbalardan keng foydalanishni takomillashtirish

2. Integrativ yondashuvlar asosida "Kislorodli organik birikmalar" bo'limini o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir tavsiyalar, ilmiy va amaliy yo'riqnomalar ishlab chiqish va ta'lim mazmuniga singdirish.

3. Mustaqil ishlarni tashkil etishda ijodiy loyihalardan keng va samarali foydalanish samaradorligini takomillashtirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**НОРБЕРДИЕВА МУЯССАР ШАРИПОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА  
“КИСЛОРОДНЫЕ ОРГАНИЧЕСКИЕ СОЕДИНЕНИЯ” НА ОСНОВЕ  
ПРОЕКТИРОВАНИЯ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (химия)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № B2023.2.Phd/Ped5110.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном педагогическом университете.

Аннотация диссертации размещена на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Абдуллаева Барно Сайфутдиновна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Карлыбаева Гулжахан Ермакбаевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ахатов Маъмур Шарипович**  
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

**Ведущая организация:** **Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 при Ташкентском государственном педагогическом университете (адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом №27). Тел.: (99871) 276-82-32; факс: (99871) 276-76-51, e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного педагогического университета (зарегистрирована за №\_\_). Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом №27. Тел.: (99871) 276-75-87; факс: (99871) 276-76-51.

Аннотация диссертации разослана «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**З.Н.Мамаражабова**  
Председатель Научного Совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.п.н., профессор

**Р. Г. Исянов**  
учёный секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней  
к.п.н., доцент

**М.Э.Мамаражабов**  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.п.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В образовательных учреждениях мира на основе происходящих изменений внедряются механизмы развития творческой деятельности студентов на основе внедрения в систему образования инновационных технологий, проектирования, направленные на повышение качества и эффективности образования в условиях цифровой экономики. В международной образовательной концепции до 2030 года в качестве актуальной определена задача – создание возможности получения качественного образования на протяжении всей жизни<sup>1</sup>. В данной образовательной системе особое внимание уделяется использованию интерактивных методов для повышения уровня методической подготовки будущих учителей химии к профессиональной деятельности, развитию уровня их компетентности.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях ведутся научные работы в области внедрения информационных технологий в образовательный процесс в системе высшего образования, создания механизмов интегрированного преподавания учебных дисциплин, определения и внедрения в практику педагогических и дидактических основ, научно обоснованной системы проектирования, внедрения и совершенствования на основе современных методов, совершенствованию и развитию химических знаний на основе инновационного подхода. Данные исследования расширяют возможности использования педагогических и информационно-коммуникационных технологий на уроках химии, развития методических знаний студентов.

В нашей стране внимание, уделяемое образованию в последние годы, позволяет в существующих условиях молодому поколению самостоятельно и свободно мыслить, выражать свое личное отношение на происходящие события. Изменения вносятся и в содержание, формы, методы и средства обучения. В связи с изменением условий труда и требований к специалистам на первый план в подготовке будущих специалистов вышли их креативность и конкурентоспособность, в результате чего требуется более широкое использование инновационных методов обучения. Важной задачей современного образования является не только формирование систематических знаний, учебных навыков и умений, но и развитие навыков самоуправления в коммуникативной и учебно-познавательной деятельности.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач в области совершенствования образовательного процесса, намеченных в указах Президента Республики Узбекистан №УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года, №УП-6108 “О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период

---

<sup>1</sup>Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

развития Узбекистана” от 6 ноября 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4805 “О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям “химия” и “биология” от 12 августа 2020 года, также в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением науки и технологий в республике I «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-нравственного развития информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** В нашей республике исследования в области формирования творческой познавательной деятельности обучаемых на уроках химии и развитию их мыслительной способности проводили Х.Т.Омонов, Ш.Ш.Бегматов, Н.Г.Рахматуллаев, Ш.М.Миркомиллов, М.Нишанов, С.А.Низамова, Ш.К.Мамажанов, А.Хаитов, Э.Эшчанов, Б.Доманов, М.Б.Ажиева, Ф.А.Алимова, Л.Т.Зайлобов, Р.Бердикулов, И.Шерназаров, Д.Саримова, С.Мовлонова, Ш.Шомуротова, Ш.Сайдахметова, Ш.Форманова и др.

